
“G’AMXO’RLIK” GURUHLARI FAOLIYATI YO’LGA QUYILADI



“G’amxo’rlik” guruhlari faoliyati yo’lga quyiladi

Sog’lig’ida og’ir darajada nuqsoni bor bolalarni jamiyatga moslashishiga mo’ljallangan “G’amxurlik” guruhlari tashkil etiladi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 25 yanvardagi 46-sonli qaroriga asosan, alohida ta’lim ehtiyoji bo’lgan og’ir darajadagi sog’lig’ida nuqsoni bor bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim tashkilotlarida qisqa muddatli “G’amxurlik” guruhlari faoliyati yo’lga quyiladi.

“G’amxurlik” guruhlari:

2024 yil 1 fevraldan Toshkent shahridagi ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktab, maktab-internatlarda;

2024 yil 1 apreldan Toshkent viloyatidagi ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktab, maktab-internatlarda;

2024 yil 1 avgustdan respublikaning qolgan hududlaridagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktab, maktab-internatlarda tashkil etiladi.

“G’amxurlik” guruhlari ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalariga qabul qilinmaydigan alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarni qisqa muddatga (4 soatgacha) parvarishlash, ta’lim-tarbiya berish hamda ularni jamiyatga moslashishiga ko’maklashish maqsadida tashkil etilmoqda.

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida tashkil etilgan “G’amxurlik” guruhida bolalarning ta’lim olishi bepul amalga oshiriladi.

Yusufjon Marufjonov - “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi

bolalarni ijtimoiy himoya qilish shu'basi bosh mutaxassisi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-07-25 16:14:35